


PEDAGOGIK MAHORAT

2
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2-son (2021-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqsa boshlagan

Buxoro – 2021

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....	7
Зариф УМУРОВ. Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари	7
Иброҳим УМАРОВ. Хорижий давлатлар ва мамлакатимиз кредит-модуль тизимининг қиёсий таҳлили	11
Зилола РАСУЛОВА. Бўлажак технология фани ўқитувчиларининг креативлигини ривожлантиришда дастурий таълим воситаларидан фойдаланиш.....	15
Муслима БОЗОРОВА. Роль этнопедагогики в подготовке компетентного специалиста в системе педагогического образования.....	21
Зебохон МАМАРАҲИМОВА. Ўспиринларнинг ўзини-ўзи тарбиялаши педагогик муаммо сифатида Mirzomurod NAFASOV. Mobil ta’lim va undan foydalanishning ahamiyati	26
Обод ЭРГАШЕВА. Ўзбек оиласарида киз болалар тарбияси.....	33
Baxrom URINOV. Ta’limga yevropa integratsiyasining asosiy maqsadi va tamoyillari	45
Nuriddin ACHILOV. Hakim at-Termizi asarlari vositasida talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish mazmuni.....	48
Зебо ТЎХТАЕВА. Олий таълимда ихтисослик фанлари интеграциясини таъминлаш имкониятлари..	53
Бобиржон ЭРГАШЕВ. Профессионал таълим тизими битиравчиларининг касбий қўнималарини эгаллашларида педагогик стратегиялар	60
Зубайда БАХРАНОВА. Корпоративная культура в условиях инновационного развития вуза.....	65
Ғулом БОҚИЕВ. Педагоглар малакасини оширишда замонавий таълим методларидан фойдаланиш .68	
Гулноз ҚУРБОНОВА. Дарс машғулотларида талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришга инновацион ёндашув	72
Dilnoza AXMEDOVA, Baxtiyor ADIZOV. Pedagogika fanlarini o‘qitishda muammoli ta’lim metodlarining o‘rnii	78
Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish.....	81
Сардор ХОДЖАНИЯЗОВ. Сулаймон Бокирғоний ҳикматларида ахлоқий ва маънавий тарбия тўғрисидаги ғояларининг акс этиши	85
Динара АТАДЖОНОВА. Имоми Аъзам Абу Ҳанифа асарларида хулқий гўзалликни қарор топтиришнинг тарбиявий усул ва воситалари	89
Манзура РАХМЕДОВА. Маҳмуд аз-Замахшарий асарларида маънавий-маърифий ва ахлоқий масалалар.....	93
Санжар МИРЗАЕВ. Қишлоқ ва сув хўжалигига сувдан фойдаланиш этикасини ўргатиш методикаси	96
Шерзод АБДУРАХМАНОВ. Ўқувчи-ёшларда ватанпарварликни шакллантиришда мутафаккирларнинг таълим –тарбияга оид қарашларидан фойдаланиш.....	103
Марҳабо АШУРОВА. Футувват (жавонмардлик) - ахлоқий тарбия асоси.....	106
Rohila NORQO’CHQOROVA. Pedagogika kolleji o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish samaradorligini oshiruvchi omillar.....	110
Насиба ЖУМАНИЁЗОВА. Аутизм ташхисли болаларга ота-оналарнинг муносабатини шакллантириш	113
Машхура СУЛТОНОВА. Зўравонликни бошдан кечирган аёлларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	117
Go‘zal YUNUSOVA. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning kreativ tafakkuri rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	121
MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM.....	125
Maqsuda NORBOSHEVA. Maktabgacha yoshdagagi bola shaxsini rivojlantirishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	125
Рустамбек ҚЎЛДОШЕВ. Чапакай ўқувчиларнинг мактабга мослашуви ва унинг ўзига хос хусусиятлари	127
Малика ХАЙДАРОВА. Бошлангич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни татбиқ этишнинг ўзига хос хусусиятлари	133
Наргиза КУЧКАРОВА. Бўлажак бошлангич синф ўқитувчиларини ўқув фанларида иқтисодий - маданий ривожлантиришнинг модели ва технологияси.....	136
Бибихол КАРИМОВА. Мехрибонлик уйлари бошлангич синф тарбияланувчиларида миллий ғурурни ҳадислар асосида шакллантиришда интерактив методлардан фойдаланиш	139

Farhod JALOLOV, Gulmira SHARIPOVA. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida didaktik o'yinlarni multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish	143
Umida TOG'AYEVA. "Ona tili o'qitish metodikasi" modulini o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	145
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH149	
Муқаддас ТҮРАБОЕВА. Она тили таълимида тафаккурни ривожлантирувчи машқлар методикаси	149
Дилноза НАЗАРОВА. Ўзбек тили лексикасининг мустақиллик йилларида тараққиёти.....	152
Собит АВЕЗОВ. Алишер Навоий ижодида фольклор анъаналари.....	154
Дилбар ШАРИПОВА, Мурод ХУСЕНОВ. Интерактивные методы при изучении русского языка	157
Muzaffar RAKHIMOV. Modern methods and technologies of teaching english language in higher school	162
Zarifa RO'ZIMURODOVA. Ways of integration wiki technology into foreign language teaching	167
Sirojiddin ABDURAXMANOV. Nemis tilidagi fe'l boshqaruvini talabalarga derivativ ifodalar orqali tushuntirish	169
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH172	
Покиза ЖАЛОЛОВА. Таълимда рақамли технологияларни кўллаш методикаси	172
Negmurod DONIYOROV. Matematika fanini o'qitishda buyuk ajqdodlarimiz ilmiy merosidan foydalanish	177
Олим ТҮРАҚУЛОВ, Ўкташ ҲАЛИМОВ, Техника йўналиши талабаларининг математик билимларини оширишда лойиҳали ёндашувнинг самарадорлиги.....	182
Bobur ISMOILOV. Yangi O'zbekiston – yangicha matematik qarash.....	186
Mehrinisho ATOYEVA. Fizika kursi mavzularini fanlararo integratsiya asosida o'qitish metodikasi	191
Эргаш МАХМАНОВ. Физика дарсларида бўлажак муҳандисларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш	195
Gulnora IXTIYAROVA, Charos HAYDAROVA, Ma'murjon AXADOV, Zohida ISHMANOVA. Kimyo fanida zamonaviy ta'limning innovatsion shakllari.....	201
Ma'murjon AHADOV. "D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi"ni 3D texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi.....	205
Лобар ШАРИПОВА. Кимё фанини ўқитиш жараёнида экологик тарбия	210
IQTISODIYOT VA TURIZM213	
Gulchexra UMAROVA. Menejerda boshqaruv madaniyatini shakllantirish zaruriyati.....	213
TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI216	
Маърифат УМУРОВА. Традиционное искусство Бухары	216
Ифтихор КАМОЛОВ, Линар ҲАЛИЛОВ. График натюрмортни яратишни ўрганиш тажрибалари .	223
Tolib SOBIROV, Qavmuddin OMONOV. IX-XV asrlar Markaziy Osiyo allomalarining geometrik yasashlarni zamonaviy ta'linda qo'lllash	225
Фаррух НУРУЛЛАЕВ, Бобур НУРУЛЛАЕВ, Нодира НУРУЛЛАЕВА. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини танлаб олишга қўйиладиган методик талаблар.....	228
Насиба ИНОЯТОВА. Шашмақом тарихидан	233
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT238	
Дилноза Рахматова. Спортчilar чидамлилиги мониторинги учун тест	238
Бухоро вилоят футбол жамоаси "Универсиада" совриндори	245
"Педагогик маҳорат" журнали учун мақолаларни расмийлаштириш талаблари.....	247

Umida TOG'AYEVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lif metodikasi
kafedrasi tayanch doktoranti

"ONA TILI O'QITISH METODIKASI" MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ushbu maqolada "Ona tili o'qitish metodikasi" modulida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi, ahamiyati yoritilgan. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi nazariy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiya, pedagogik texnologiya, texnik vosita, didaktik vosita, pedagogik mahorat, axborotli vosita, multimedia, interfaol metodlar.

В данной статье рассматривается важность использования информационно-коммуникационных технологий в модуле "Методика обучения родному языку". Теоретически обоснована методика использования педагогических технологий.

Ключевые слова: информационные технологии, педагогические технологии, технические средства, дидактические средства, педагогические навыки, информационные средства, мультимедиа, интерактивные методы.

This article discusses the importance of the use of information and communication technologies in the module "Methods of teaching the native language". The methodology of using pedagogical technologies is theoretically substantiated.

Key words: information technology, pedagogical technology, technical means, didactic means, pedagogical skills, information means, multimedia, interactive methods.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lif tizimida innovatsion ta'lif texnologiyalari hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)dan foydalanish, oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashning samarali tizimi joriy etilishi ta'lif oluvchilar bilimlarining tizimli, kompleks hamda uzviy bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy yosh avlodga ta'lif-tarbiya beradigan o'qituvchi, avvalambor, o'zi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Har bir o'qituvchi o'z fanining yetuk mutaxassisini bo'lishi bilan bir qatorda, o'zidagi bor bilimini kam vaqt sarflagan holda katta hajmdagi axborotni ko'rgazmali tarzda yetkazib berishga harakat qilishi lozim. Juhon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta'lif mazmunida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta'lif samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Kanada kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlarida til ta'liming samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari hamda o'qitishning sifatini oshirish muammosi o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, "Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o'qitishni tubdan yaxshilash" muammosi BMTning ta'lif, fan va madaniyat masalalariga doir bitimida ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan[1].

Ta'lif tizimining dunyo amaliyotida o'qitish metodikasini individuallashirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ta'lif sifatini ta'minlashning yetakchi omili sifatida qaraladi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lif muassasalarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faoliy kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'nnaviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lif tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [2] vazifasi shaxsnинг intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Asosiy qism. Oliy ta'lifning asosiy vazifalaridan biri – bu boy dunyoqarashga ega va innovatsion faoliyatda ishtirok eta oladigan bilimli, malakali va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunda darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati katta. Axborotli ta'lif jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni

kompyuterlashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri va pedagogik texnologiyalar bilan shug’ullanishi lozim bo‘lgan sohadir.

Axborot texnologiyalari – kishilarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma’lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnika vositalari hisoblanadi. Shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma’lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg’unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi.

Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlardan nutq sharoitiga ko‘ra to‘g’ri, o‘rinli va samarali foydalanish, malaka va ko‘nikmalarni singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda mакtab ona tili kursining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil yurtimiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi o‘ta muhim vazifa bo‘lib turgan bir sharoitda bu fanning o‘qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a’zolari o‘rtasida bajaradigan vazifalaridan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarini barcha sohalarda bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab turgan moddiy borliqdagи narsa-buyumlar, voqeahodisalar to‘g’risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma’qul qiladilar.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki ular yordamida dars samaradorligi yanada ortishi turli tadqiqotlar orqali asoslanmoqda. Shunday ekan, eng avvalo, oliy ta’lim muassasasi talabalarini zamonaviy pedagogik texnologiyaga oid chuqur bilimlar bilan qurollantirishimiz kerak. Ona tili o‘qitish metodikasida, ayniqsa, axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda muhim. Chunki bu fan orqali talabaning nutqi go‘zallashadi, fikrlash qobiliyati kengaytiriladi.

O‘quv mashg’ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. Ilg’or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo‘llash, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi o‘rnini belgilash, unga yangicha yondoshuvi, yangicha munosabatni ta’minalash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir. Ona tili darslarida musobaqa darslarini o‘tkazishdan maqsad o‘quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko‘rish, o‘zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlardan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqo olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari talabalarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlaniradi, zarur va foydali ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo‘lgan musobaqa darsi til mashg’ulotlarining qiziqarli o‘tishi va o‘quvchilarining faol ishtirotini ta’minlovchi vositadir. Bahsmunozara talabalardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytigan fikrning to‘g’ri yoki noto‘g’riligi haqida va o‘z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o‘rgatadi. O‘zaro tortishuv va babs oqibatida eng to‘g’ri va ma’qul yechimga kelinadi. Talaba babs - munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o‘z “men”ini anglab yetadi, o‘z dunyoqarashi, ilmiy-ijobiy tafakkuri ko‘lami, haq yoki nohaq ekanligi to‘g’risida, o‘zi mustaqil xulosa chiqaradi. O‘z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlardan unumli foydalanishga o‘rgatadi.

O‘quv fanlari bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilishi ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tatbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o‘qituvchilarni ilg’or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Zamonaviy AKTlardan biri multimedialar hisoblanadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasi. Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Ko‘pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko‘rinishidir.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- a) berilayotgan materiallarni chucherroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- b) ta'lif olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoji yanada ortadi;
- c) ta'lif olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtini tejash imkoniyatiga erishish;
- d) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Ta'lif oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdag'i multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldar ta'lif texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lif oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lif oluvchilar dasturda belgilangan sozlovchlarni individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so'roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediana foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim. Multimediada taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lif oluvchilarga salohiyatl (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lif strategiyasi ta'lif jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lif oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Darsning qiziqarli bo'lishi va esda ko'proq qolishi uchun har bir o'qituvchi ijodkorligini ishga solgan holda o'z metodlarini yaratishi lozim. Quyida bir nechta mertodni tahlil qilamiz.

"Galereyani aylanish" metodi

Kichik guruhlarning hamma a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 daqiqa davomida o'z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqlarni ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldindi guruhning javoblarini baholashi va javob tugal bo'lmasa, o'z variantini taklif etishi kerak.

Shu kungi mavzuga doir ona tili o'qitish metodikasi fanidan topshiriqlarga misollar:

"Ot so'z turkumi" mavzusini o'rgatish metodikasi.

1-varaq: "Ot so'z turkumi" tushunchasini o'rgatish metodikasi.

2-varaq: Ot so'z turkumini o'rgatishda foydalaniladigan metodlar.

3-varaq: Ot so'z turkumi mavzusini mustahkamlash yo'llari.

Talabalar o'z javoblarini berib, o'rtoqlarining javoblarini to'ldirishganlaridan keyin hammalari birgalikda bularni muhokama qilishadi va eng yuqori ballga arziyidigan javoblarni tanlab oladilar.

"Sindikat"metodi

Guruh 3 ta kichik guruhga bo'linadi, taklif etilayotgan topshiriqnini uch xil nuqtayi nazardan hal qilish zarur. Masalan, hozirgi davrda ona tili o'qitish muammosi bilan kimlar shug'ullanmoqda? Birinchi guruh – bu sohada pedagoglardan tashqari filosoflar, sotsiologlar, psixologlar ham keng tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar, ikkinchi guruh – bu ishlar ilmiy xodimlar, o'qituvchilar ommasi - intellegentlarga taalluqli bo'lib, ular ona tili o'qitish metodikasi fanining va maktabdagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlar samaradorligiga e'tiborni qaratadilar, uchinchi guruh – hozirgi kunda ona tili o'qitish metodikasi fani faqat yosh avlodni shakllantirish uchungina muhim bo'lib qolmay, balki uning roli jamiyatning hamma sohalarida muhim bo'lmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda yoki xalq xo'jaligining biror-bir sohasida kompleks tarbiyaviy tadbirlarni qo'llamasdan turib bir natijaga erishish mumkin emas.

Shunday qilib, muhokama vaqtida talabalar ona tili o'qitish metodikasi muammosi bilan sohalarda shug'ullanilayotganini muhokama qilish bilan birgalikda bu fan muammolarining bir qancha yechimlarini ko'rib chiqishadi, bilim va malakalarini oshirishadi. Shu o'rinda ona tili o'qitish sohasida yo'l qo'yiladigan xatolarni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilib, o'z bilimlarini oshirishadi, tanqidiy nuqtayi nazardan fikr yuritishni o'rganishadi.

Xulosa. Ona tili metodikasida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til ta'limi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dars mashg'ulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtida o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida

teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashq'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga hamda ijodga rag'bati ortadi.

Adabiyotlar

1. ЮНЕСКО халқаро мөъёрий хужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Сайдова. –Т.: “Адолат”, 2004. –Б. 19-62.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. –Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжати, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
3. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovastion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –Toshkent: “Iste'dod”, 2008. -180 b.
4. Pedagogik atamalar lug'ati. –Т.: “Fan”, 2008-yil.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
6. Tolipov U, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatlbiqiy asoslari. – Т., 2006.
7. Косимов Ф. М., Ярашов М. Ж. ТВОРЧЕСКИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ //ИННОВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 178-181.
8. Yunus Y. S. Methodology Of Teaching Assignments To Work With Non-Standard Solution In Primary School Mathematics Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 02. – С. 439-446.
9. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 580-587.
10. Sidikova S. D. Theoretical and didactic principles of distance learning //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 541-548.